O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Termiz davlat pedagogika instituti
rektori _____ A.B. Xasanov
“28” avgust 2026-yil

19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) ga kirish imtihon

DASTURI

Termiz-2026

ANNOTATSIYA

Mazkur dasturdan 19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) ga topshirishda foydalaniladi. Imtihon jarayonida mutaxassislar talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu asosida bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo‘lib, unda ta’lim nazariyasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar, kasbiy va pedagogik kompetensiyaga doir imtihon savollaridan namunalar tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: ps.f.f.d. (PhD), dotsent O.E. Eshmuradov

ps.f.f.n., professor M.A.Narbasheva

Taqrizchilar: ps.f.d. DSc, professor.U.D.Qodirov

ps.f.d. DSc, professor.X.G.Sharafutdinova

ps.f.d. DSc, professor. B.S.Abdullayeva

Dastur Termiz davlat pedagogika institutining “Amaliy psixologiya” kafedrasining 2026-yil 26 -avgustdagi № 1 -sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Mazkur dastur Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashining 2026-yil “26” avgustdagi № 3 -sonli majlisida muhokama qilinib, ma’qullangan.

KIRISH

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqildi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim va tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichini yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilarda ma'naviy madaniyatni rivojlantirish mexanizmlarini, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim vazifalar etib belgilangan.

"19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya" ixtisosligi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy qonun hujjatlari asosida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Uning asosiy maqsadi – pedagogika ixtisosligi bo'yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, ushbu fanning shakllanish va rivojlanish tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologik asoslari, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotlar, shu jumladan, chet el davriy nashrlari hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko'rsatib berishi lozim.

19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni ilmiy pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. 19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha tuzilgan kirish imtihon dasturi umumiy pedagogika fanining bir tarmog'i bo'lib, u ilmiy xodimning yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Imtihon topshiruvchi-tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, pedagogika fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan bog'liq ilmiy metodologik masalalardan xabardor bo'lishi, shu bilan birga u o'z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal etishda foydalanishi lozim.

Dasturning maqsadi - tadqiqotchilarda ijtimoiy psixologiya fanining mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, jamiyat hayotidagi o'rni va hozirgi ta'lim jarayonlari doir bilimlar bilan qurollantirish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini takomillashtirishdan iborat.

Dasturning vazifasi - ijtimoiy psixologiya fanining mazmuni, mohiyati va predmeti, shaxs tushunchasi, ijtimoiy psixologiya fanining predmeti, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari va turlari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, ijtimoiy-psixologik tadqiqotning asosiy tiplari, muloqotning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy psixologiyaning metodlari, ijtimoiy nizoning mazmuni va dinamikasi, korreksion ijtimoiy psixologiya tarixining mazmun mohiyati, davrlashtirish muammolari,

mutafakkirlarning ma'naviy merosi va ijtimoiy-psixologik qarashlari, ta'lim-tarbiya tizimaga doir bilimlarni amaliyotda qo'llash, tahlil etish, o'rganish, aniqlash, ahamiyatini ochib berish.

19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha tuzilgan kirish imtihon dasturining asosiy mazmuni

Ijtimoiy psixologiyaga kirish. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari.

Ijtimoiy psixologiyaning predmetiga oid yondashuvlar. Dastlabki ijtimoiy psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi. Ijtimoiy psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazar. Sotsial-psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi. Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyadagi ivojlanishi. O'zbekistonda Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari va tarmoqlari

Ilmiy bilim rivojlanishining zamonaviy bosqichida metadologik muammolar ahamiyatining o'sishi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchasi. Sotsialpsixologiyada talablar. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotning ikki asosiy tipi. Eksperimentli va korrelyasion. Ma'lumotlarning ishonchligini va sharti masalasini ochish xususiyati.

Shaxslararo o'zaro ta'sir va muloqotning ijtimoiy psixologik qonuniyatlari

Muloqot tushunchasi. Muloqot uning funktsiyalari va mazmuni. Muloqot tuzilishi va turlari. Muloqot shaxslararo munosabatlarda o'zaro ta'sir qilish strategiyalari va taktikalari sifatida. Muloqot darajalari, va uslublari. Muloqotning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari.

Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi

Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasi. Shaxs tomonidan ijtimoiy ta'sirlarning anglanishi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Shaxsning ijtmoiylashuvi. Psixoanaliz. Bixeviorizm. Sotsiometriya. Kognitivizm. Interaktsionizm. Insonparvarlik psixologiyasi. Tranzakt tahlil. Ekzistentsial psixologiya.

Rahbarlik va liderlikning ijtimoiy psixologiyasi

Rahbarlik va liderlikning ijtimoiy-psixologik asoslari. Rahbar shaxsini ijtimoiy-psixologik tahlil qilish. Boshqaruvdagi guruh dinamikasining psixo-emotsional xususiyatlari.

Ijtimoiy psixologiyada guruhlar muammosi

Ijtimoiy psixologiyada guruhlar psixologiyasini tadqiq etishning o'ziga xosligi. Ijtimoiy psixologiya va ideologiyaning o'zaro munosabati. Guruhlararo munosabatlar psixologiyasi sotsial psixologiyaga nisbatan yangi soha. Chet el sotsial psixologiyasida guruhlararo munosabatlarning o'rganilishi. Guruhlararo o'zaro ta'sirni guruhdagi ichki jarayonlarga ta'siri.

Kichik guruhlar psixologiyasi

Kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasi. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.

Ijtimoiy psixologiyada katta guruhlarning o‘rganilishi

Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi. Katta ijtimoiy guruhlar darajasida guruhlararo jarayon spesifikasi. Guruhlararo munosabatlar psixologiyasining amaliy muammolari. Etnik guruhlarning psixologik xususiyatlari. Etnik guruhlarni tadqiq etishning metodologik printsiplari. Etnik kelib chiqish, etnik guruh mavjudligining Sotsial tarixiy sharoitlarga bog‘liqligi. Ommaviy Sotsial jarayonlar va harakatlar psixologiyasi.

Guruhiy nizolarning ijtimoiy psixologik asoslari

Nizolarning ijtimoiy-psixologik mohiyati. Nizolar turlari va ularning ijtimoiy-psixologik parametrlari. Tashkilot faoliyatida nizoli muammolar.

Nizo jarayonida namoyon bo‘ladigan xulq atvor ko`rinishlari

Nizoni kelib chiqish sabablari va oqibatlari. Nizoning hissiy emotsional sohaga ta’siri. Stress. Ijtimoiy nizoning mazmuni va dinamikasi. Nizoli vaziyatlarda o‘zini boshqara olish strategiyalari.

Etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari

Etnopsixologiya haqida umumiy tushuncha. Etnopsixologiya fanining predmeti, obyekti va vazifalari. Etnopsixologiyaning asosiy tushunchalari: “etnos”, “madaniyat”, “etnik identiklik”. Etnopsixologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati. Etnopsixologiya fanining muammolari. Etnopsixologiyaning fanlararo xarakteri. Etnopsixologiyaning asosiy bo‘limlari. Etnopsixologik tadqiqotlarda “Emik” va “Etik” yondashuvlar. Etnopsixologiyaning tadqiqot metodlari. Etnopsixologik tadqiqotlarni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili

Etnos, elat, millat, irq tushunchalarining o‘ziga xos jihatlari. Millat tushunchasi. Millatning psixologik asoslari mazmuni. Moddiy va ma’naviy madaniyat. Etnik muhit va etnik madaniyat. Etnik madaniyat xulq-atvor namunalari, qadriyatlari, mazmun-mohiyatlari tizimi sifatida. Etnosning yaxlit tizim sifatida mavjudligi.

Turli elat vakillari xulq-atvorining psixologik o‘ziga xosligi.

Shaxsiy o‘zlikni anglash va etnik o‘zlikni anglash tushunchalarining mushtarakligi. Etnik o‘zlikni anglashning tarkibiy tuzilishi va funktsiyalari. Etnonim tushunchasi. Individ Sotsializasiyasida tilning o‘rni. Bolalar Sotsializasiyasi va inkulturasiyasi. Shaxsning universallik va madaniy o‘ziga xoslik nazariyalari muammosi. Millatning psixik qiyofasi va uning tarkibiy qismlari. Etnik olam tasavvurining tarkibiy tuzilishi. Etnik ustanovkalar va sxemalar.

Milliy xarakter va etnik identiklik

Milliy xarakter va temperament. Milliy mentalitet va milliy tafakkur. Etnik identiklikning shakllanishi. Etnik identiklik turlari. Etnik identiklikning o‘sishi va inqirozi fenomenlari. Milliy xarakterning asosiy nazariyalari. Milliy xarakterning asosiy o‘lchovlari. Milliy-psixologik o‘ziga xosliklar tushunchasi, turlari va xususiyatlari. Milliy psixikaning funktsiyalari. Etnik ramzlar. Etnik ramziylashtirish mexanizmlari. Etnosning psixologik himoya mexanizmlari. Etnopsixologik hodisalarni o‘rganishga yondashuvning ilmiy tamoyillari. Etnopsixologik fenomenlarning namoyon bo‘lish mexanizmlari.

Din psixologiyasining predmeti va metodlari

Din va din psixologiyasi tushunchalarining ta'riflari. Din psixologiyasi fanining umumiy tavsifi. Ilmiy bilimlar tizimida din psixologiyasining o'rni. Din psixologiyasining tadqiqot metodlari. Dinning psixologik nazariyalari.

Diniy ong tushunchasi. Diniy psixologiya va diniy mafkura. Diniy ibodat va uning dindor psixologiyasiga ta'siri. Diniy tasalli va diniy targ'ibot. Ishonch va uning turlari. Diniy e'tiqod. Ichki (botiniy) dindorlik - din psixologiyasi predmeti sifatida.

Dinning shaxs shakllanishidagi o'rni va mohiyati

Diniy kechinmalarning psixologik tahlili, Psixologiya fanida diniy e'tiqod tushunchasiga yondashuv. Diniy amallar va diniy xulq-atvor. G.Olliport tadqiqotlarida dindor shaxsi tipologiyasi, V.Frankining hayot mazmuni to'g'risidagi ta'limotida dindorlik tushunchasi. Rasional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasi. Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko'rsatadigan psixologik ta'siri. Insonlarni diniy tashkilotlarga jalb etish xususiyatlari. Da'vatchi (yollovchi) va obyekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o'zaro aloqaning vujudga kelishi. Obyektning (yollanuvchining) ongini boshqarishning nutqiy usullari. Psixotexnik usullar va obyekt (yollanuvchi) ongida hosil bo'lgan o'zgarishlarning tashqi belgilari.

Tatbiqiy ijtimoiy psixologiya

Ijtimoiy fikr va sotsial kayfiyat - ommaviy sotsial jarayonlarning muhim xarakteristikasi. Katta sotsial guruhlar psixologiyasining emosional tomonini sotsial fikr va sotsial kayfiyat shakllanishidagi ahamiyati.

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish savollari

1. Ijtimoiy psixologiyaning predmetiga oid yondashuvlarni tahlil qiling.
2. Ijtimoiy psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazarni ocib bering.
3. Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishini yoritib bering.
4. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyadagi ivojlanishi yoriting.
5. O'zbekistonda ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollarini tushuntiring.
6. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi tushunchasini yoritib bering.
7. Muloqot uning funktsiyalari va mazmuni misollar yordamida tushuntiring.
8. Muloqot shaxslararo munosabatlarda o'zaro ta'sir qilish strategiyalari va taktikalarini izohlab bering.
9. Muloqotning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari haqida tushuncha bering.
10. Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasini tushuntiring.
11. Shaxsning ijtmoiylashuvini izoh bering
12. Psixoanaliz yo'nalishning mazmun va mohiyatini izohlab bering.
13. Bixeviorizm yo'nalishning mazmun va mohiyatini izohlab bering.
14. Kognitivizm yo'nalishning mazmun va mohiyatini izohlab bering.
15. Insonparvarlik psixologiyasining mazmun va mohiyatini izohlab bering.

16. Rahbarlik va liderlikning ijtimoiy-psixologik asoslarini tushuntirib bering.
17. Rahbar shaxsini ijtimoiy-psixologik tahlil qiling.
18. Ijtimoiy psixologiyada guruhlar psixologiyasini tadqiq etishning o‘ziga xosligini izohlang.
19. Chet el sotsial psixologiyasida guruhlararo munosabatlarning o‘rganilishi xolatini tahlil qiling.
20. Guruhlararo o‘zaro ta’sirni guruhdagi ichki jarayonlarga ta’sirini yoritib bering.
21. Kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini tushuntirib bering.
22. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qiling.
23. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasini tushuntirib bering.
24. Etnik guruhlarni tadqiq etishning metodologik printsiplarini izohlang.
25. Shaxs rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonini izohlang.
26. Ommaviy Sotsial jarayonlar va harakatlar psixologiyasini izohlang.
27. Nizolarning ijtimoiy-psixologik mohiyatini tushuntirib bering.
28. Nizolar turlari va ularning ijtimoiy-psixologik parametrlari misollar yordamida izohlang.
29. Ijtimoiy nizoning mazmuni va dinamikasini izohlang.
30. Etnopsixologiya haqida umumiy tushuncha bering.
31. Qadriyatlari, mazmun-mohiyatlarini tushuntiring.
32. Etnopsixologiya fanining predmeti, obyekti va vazifalarini tushuntiring.
33. Etnopsixologiyaning asosiy tushunchalari: “etnos”, “madaniyat”, “etnik identiklik” larni tahlil qiling. Misollar keltiring.
34. Etnopsixologik tadqiqotlarni tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.
35. Etnos, elat, millat, irq tushunchalarining o‘ziga xos jihatlarini izohlang.
36. Etnik madaniyat xulq-atvor namunalarini misollar yordamida bayon qiling
37. Shaxsiy o‘zlikni anglash va etnik o‘zlikni anglash tushunchalarini izohlab bering.
38. Milliy xarakter va temperament.
39. Milliy mentalitet va milliy tafakkur.
40. Etnik identiklikning shakllanishi. Etnik identiklik turlari.
41. Etnik identiklikning o‘sishi va inqirozi fenomenlari. .
42. Milliy xarakterning asosiy nazariyalari. Milliy xarakterning asosiy o‘lchovlari.
43. Milliy-psixologik o‘ziga xosliklar tushunchasi, turlari va xususiyatlari.
44. Milliy psixikaning funktsiyalari.
45. Etnik ramzlar. Etnik ramziylashtirish mexanizmlari.
46. Etnosning psixologik himoya mexanizmlari.
47. Etnopsixologik hodisalarni o‘rganishga yondashuvning ilmiy tamoyillari.
48. Etnopsixologik fenomenlarning namoyon bo‘lish mexanizmlari.

49. Din va din psixologiyasi tushunchalarining ta'riflari. Din psixologiyasi fanining umumiy tavsifi.
50. Ilmiy bilimlar tizimida din psixologiyasining o'rni.
51. Din psixologiyasining tadqiqot metodlari. Dinning psixologik nazariyalari.
52. Diniy ong tushunchasi. Diniy psixologiya va diniy mafkura.
53. Diniy ibodat va uning dindor psixologiyasiga ta'siri.
54. Diniy tasalli va diniy targ'ibot. Ishonch va uning turlari.
55. Diniy e'tiqod. Ichki (botiniy) dindorlik - din psixologiyasi predmeti sifatida.
56. Diniy kechinmalarning psixologik tahlili
57. Psixologiya fanida diniy e'tiqod tushunchasiga yondashuv.
58. Diniy amallar va diniy xulq-atvor.
59. G.Olliport tadqiqotlarida dindor shaxsi tipologiyasi
60. V.Frankining hayot mazmuni to'g'risidagi ta'limotida dindorlik tushunchasi.
61. Rasional va konfessional yo'naltirilgan din psixologiyasi.
62. Diniy jamoa va din peshvolarining (rahnamolarining) insonga ko'rsatadigan psixologik ta'siri.
63. Insonlarni diniy tashkilotlarga jalb etish xususiyatlari. Da'vatchi (yollovchi) va obyekt (yollanuvchi) orasida ongsizlik darajasidagi ishonchli o'zaro aloqaning vujudga kelishi.
64. Obyektning (yollanuvchining) ongini boshqarishning nutqiy usullari.
65. Psixotexnik usullar va obyekt (yollanuvchi) ongida hosil bo'lgan o'zgarishlarning tashqi belgilari.
66. Ijtimoiy fikr va sotsial kayfiyat - ommaviy sotsial jarayonlarning muhim xarakteristikasi.
67. Katta sotsial guruhlar psixologiyasining emosional tomonini sotsial fikr va sotsial kayfiyat shakllanishidagi ahamiyati.
68. Dastlabki ijtimoiy psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi.
69. Sotsial-psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi.
70. Muloqot tushunchasi. Muloqot darajalari, va uslublari.

Baholash mezonlari

1) talabgor javobi 90-100 ball bilan baholanishi uchun:
- savolda qo'yilgan masala mohiyati to'liq adekvat anglanishi;
- javob berishda mustaqil va ijodiy fikrlashi;
- qo'yilgan masala boshqa masalalar bilan bog'lab tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masalaga doir ilmiy va hayotiy misollar keltirishi;
- masala yuzasidan yirik tadqiqotchi olimlar mulohazalarini qiyoslash;
- ilmiy kategoriya va atamalar bilan erkin mulohaza yuritishi lozim.

2) talabgor javobi 70-89 ball bilan baholanishi uchun:
- savolda qo'yilgan masala mohiyati to'liq adekvat anglanishi;
- javob berishda ko'proq reproduktiv yondashuv ustun bo'lishi;

- qo‘yilgan masala boshqa yondosh masalalardan ayri holda tushuntirilishi;
- savol mazmunidagi masala yuzasidan faqat hayotiy misollar keltirilishi;
- savoldagi masala bo‘yicha faqat muayyan darslik va o‘quv adabiyotlari mualliflari fikrining esga olinishi;
- javob berishda ilmiy atamalardan erkin foydalanmaslik, ularning faqat bir ma’nosi haqida tasavvurga ega bo‘linishi kerak.

3) talabgor javobi quyidagi holatlarda 60-69 ball bilan baholanadi:
- savol mohiyatining yetarlicha adekvat anglanmasligi;
- javob berishda muayyan manbaga qattiq bog‘lanib qolishi;
- qo‘yilgan masalaning boshqa masalalar bilan aloqasi haqidagi yordamchi ishoralarga e’tiborsizlik kuzatilsa;
- savol mazmunidagi masala yuzasidan bildiriladigan mulohazalar faqat kundalik kuzatishlar natijalari bilan chegaralansa;
- javob berishda ilmiy atamalarning faqat ommalashgan ma’nolarining tushunilishi, ularning chuqur ilmiy mohiyatini anglamaslik.

Boshqa barcha holatlarda talabgor javobi 59 va undan past ball bilan baholanadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent O‘zbekiston, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent O‘zbekiston, 2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-4947 sonli Farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori // Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 21 aprel, №79 (6773).
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: O‘zbekiston, 2016. -56 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
7. “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Yangi yil arafasida – 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2016 yil 31 dekabr.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
10. Абрамова Г.С «Возрасная психология» Учебное пособие для студентов М.Изд-во 2001. 621 с.
10. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - Toshkent., 2012.
11. Karimova V.M. Sotsial psixologiya. - Toshkent, 2022.
12. Крысko В.Г. Социалная психология: Учебник для вузов. М., 2002.
13. Майерс Д. Социалная психология. СПб., 2005
14. Науменко Е.А. Организатsионная психология. Учеб. пособие. – Тюмен, изд-во ТГУ, 2011.
15. Битянова М.Р. Социалная психология. М, 2001.
16. Деркач А.А., Маркова А.К. Профессиограмма государственного служащего. М.: Изд-во РАГС, 2009. – 55 с.
17. Науменко Е.А. Психология управления. Учеб. пособие. - Тюмен, изд-во ТюмГУ, 2010.
18. Науменко Е.А. Деловые коммуникатsiи. Учеб. пособие. – Тюмен, изд-

во ТюмГУ, 2013.
19. Обозов Н.Н. Психология менеджмента. СПб., 1994.
20. Парыгин Б.Д. Социалная психология. СПб., 1999.
21.Поршнев Б.Ф. Прикладная социалная психология. М., 1998.
22. Руденский Е.В. Социалная психология; Курс лекций. Изд. 2. – доп. – М.: ИНФРА – М; Новосибирск: НГАЭиУ, 2005.
23. Социалная психология: учеб. пособие для вузов / А.Л. Журавлев, В.А. Соснин, М.А. Красников. - М.: Форум: Инфра-М,2006. С.82.
24. Социалная психология: учебное пособие для вузов / Сост.: Р.И. Мокшанцев, А.В. Мокшанцева. – Новосибирск: Сибирское соглашение; М.: ИНФРА-М, 2001.

Internet saytlari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz